




**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM
JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Abdurashidova Feruzaxon Qaxramonovna

Toshkent shahar Shayxontohur tumani

“Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi” NTM

Abdulla Qodiriy 11-uy (71)244-35-82

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Orienral universiteti 101-gr magistri

E-mail: feruzaabdurashidova45@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17921510>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 2-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 13-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Ta'lim-mamlakat taraqqiyotini ta'minlab beruvchi omillardan biri bo'lib, u bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya esa har bir millat taraqqiyotini va rivojlanishini ta'minlovchi omildir Ta'lim jarayonida bilimlar egallanadi, tarbiya amalga oshiriladi va bu katta ahamiyatga ega.

KIRISH

“Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq”

Shavkat Mirziyoyev

Jamiyatda har bir insonning ta'lim olish huquqi mavjud bo'lib, bu huquq barcha bolalar uchun teng ta'minlanishi lozim. Aynan boshlang'ich ta'lim insonning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadigan eng muhim bosqich bo'lib, har qanday ta'lim tizimining poydevorini tashkil etadi.

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim olishi va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga, ya'ni alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun alohida e'tibor va yetarli shart-sharoitlarning yaratib berilayotganligi esa alohida diqqatga sazovordir.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning, shu jumladan turli qobiliyat va imkoniyatga ega bo'lgan shogirdlarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlovchi pedagogik yondashuvdir. Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni bo'lib, har bir bolaning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat imkoniyati cheklangan, balki sog'lom bolalarga ham ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Uning asosiy maqsadi har bir bolaning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy moslashuvini va emotsional-intellektual salohiyatini rivojlantirishdir.

Boshlang'ich ta'limda inklyuziv jarayonlarni tashkil etish pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur egallashni talab qiladi. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat dars beruvchi, balki har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi pedagogik mediator sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, bolalar orasida hurmat, hamjihatlik va ijtimoiy integratsiya tamoyillarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'limning dolzarbligi shundaki, XXI asrda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi tobora murakkablashib, farqlilik va xilma-xillikni qabul qilish madaniyati asosiy qadriyatlardan biriga aylandi. Bu jarayon ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Chunki maktabda turli xususiyatlarga ega bolalar birgalikda ta'lim olishi: ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, ijtimoiy adaptatsiya jarayonini kuchaytiradi, bolalarda bag'rikenglik, hamjihatlik, empatiya kabi ijtimoiy-emosional kompetensiyalarni rivojlantiradi, har bir o'quvchi salohiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim shuni ta'kidlaydiki: **"Bola ta'lim jarayoniga moslashmasligi kerak, balki ta'lim jarayoni bolaning imkoniyatlariga moslashtirilishi kerak"**.

Bu g'oya zamonaviy ta'lim psixologiyasi, neyropedagogika, differensial ta'lim va individual yondashuv tamoyillariga to'liq mos keladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, inklyuziv ta'limning samarali tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va bolalarni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etish mexanizmlarini o'rganishdir.

Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Zotan, inklyuziv ta'lim - bu umumta'lim maktablarida sog'lom o'quvchilar bilan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni birga uyg'unlashgan tarzda o'qitish jarayoni sanaladi. Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo'lishni ta'minlovchi hamda alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta'limdir. Jumladan, inklyuziv ta'limning bosh g'oyasi: "Bola ta'lim jarayoniga emas, ta'lim jarayoni bola imkoniyatiga moslashtiriladi". O'qituvchi inklyuziv ta'limda nafaqat bilim beruvchi, balki, pedagog-mediator, psixologik ko'makchi, differensial ta'lim tashkilotchisi, sinfdagi ijtimoiy iqlimni shakllantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, sinf jamoasida o'zaro hurmat, hamkorlik, bag'rikenglik elementlarini shakllantirish inklyuziv ta'limning muhim psixologik vazifasidir.